

IQLIM O'ZGARISHINING BIO XILMA-XILLIKKA TA'SIRI

*Dtpi aniq va tabiiy fanlar fakulteti
biologiya ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi
Xushboqova Mohichehra*

Annotatsiya: *Iqlim o'zgarishi — bu yer atmosferasidagi issiqxona gazlari konsentratsiyasining ortishi natijasida haroratning o'rtacha ko'tarilishi, yog'ingarchilik rejimining o'zgarishi, muzliklarning erishi va dengiz sathining ko'tarilishi bilan kechuvchi global jarayondir. Ushbu jarayon inson hayoti, flora va fauna, iqtisodiy tizimlar hamda ekologik barqarorlikka jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tezisdan iqlim o'zgarishining biologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari hamda o'zbekiston hududidagi asosiy ekologik oqibatlari ilmiy manbalar asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *iqlim o'zgarishi, issiqxona gazi, global isish, ekologiya, biosfera, antropogen omillar.*

Аннотация: изменение климата — это глобальный процесс, сопровождающийся повышением средней температуры вследствие увеличения концентрации парниковых газов в атмосфере земли, изменением режима осадков, таянием ледников и повышением уровня моря. Этот процесс оказывает серьёзное влияние на жизнь человека, флору и фауну, экономические системы и экологическую устойчивость. В статье на основе научных источников освещены биологические, социальные и экономические аспекты изменения климата, а также основные экологические последствия на территории узбекистана.

Ключевые слова: *изменение климата, парниковый газ, глобальное потепление, экология, биосфера, антропогенные факторы.*

Abstract: *climate change is a global process characterized by an increase in average temperatures due to the rising concentration of greenhouse gases in the earth's atmosphere, changes in precipitation patterns, melting glaciers, and rising sea levels. This process has a serious impact on human life, flora and*



fauna, economic systems, and environmental sustainability. The article highlights, based on scientific sources, the biological, social, and economic aspects of climate change, as well as the main environmental consequences within the territory of uzbekistan.

Keywords: *climate change, greenhouse gas, global warming, ecology, biosphere, anthropogenic factors.*

Iqlim o'zgarishi Yer yuzidagi barcha ekotizimlarga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatmoqda. Global haroratning oshishi, yog'in miqdorining o'zgarishi, qurg'oqchilik va ekstremal hodisalar (issiq to'liqlar, yong'inlar, toshqinlar) ko'payishi natijasida ko'plab o'simlik va hayvon turlarining yashash sharoiti yomonlashmoqda. Harorat ko'tarilishi turlar arealining o'zgarishiga, ya'ni organizmlarning balandroq yoki sovuqroq hududlarga siljishiga olib kelmoqda. Bu esa ayrim endemik hamda moslanish imkoniyati past bo'lgan turlar uchun yo'qolish xavfini oshiradi. Okeanlardagi isish va kislotalanish marjon resiflarning yemirilishiga, baliqlar migratsiyasining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Quruqlikda esa o'rmonlarning qurishi, yong'inlar ko'payishi va o'simliklarning fenologik davrlarining o'zgarishi kuzatiladi. Shuningdek, changlatuvchi hasharotlar sonining kamayishi butun oziqa zanjiriga salbiy ta'sir qiladi.

Natijada ekotizimlarning barqarorligi izdan chiqib, ko'plab turlar populyatsiyasi qisqarib bormoqda, genetik xilma-xillik kamaymoqda va ayrim hayvon hamda o'simlik turlari yo'qolib ketish xavfi ostida qolmoqda.

So'nggi 100 yil ichida yer yuzasining o'rtacha harorati 1,2°C ga oshgani aniqlangan (ipcc, 2023). Mutaxassislar ogohlantirishicha, agar global isish 1,5°C dan oshsa, tabiiy ekotizimlarning 70% dan ortig'i jiddiy o'zgarishga uchraydi. O'zbekiston geografik joylashuvi sababli iqlim o'zgarishining kuchli ta'sirida qolgan mamlakatlardan biri hisoblanadi — bu yerda so'nggi 50 yilda o'rtacha harorat 1,5–1,8°C ga ko'tarilgan (hydromet.uz, 2024).

1. Iqlim o'zgarishining sabablari

Iqlim o'zgarishining asosiy sabablari antropogen (inson faoliyati) va tabiiy omillardir. Atmosferadagi issiqxona gazlarining (CO_2 , CH_4 , N_2O) konsentratsiyasi 1750 yildan buyon 50% dan ortiq oshgan. 2023-yilda atmosferadagi karbonat angidrid miqdori 421 ppm ga yetdi — bu so'nggi 2 million yildagi eng yuqori ko'rsatkichdir (nasa, 2024).

2. Iqlim o'zgarishining inson hayotiga ta'siri

Haroratning oshishi yurak-qon tomir kasalliklari, issiqlik urishi va yuqumli kasalliklar xavfini kuchaytiradi. Jsst ma'lumotiga ko'ra, 2030–2050-yillarda iqlim o'zgarishi tufayli har yili 250 ming kishi erta vafot etadi. Harorat



ortishi va suv tanqisligi natijasida bug'doy, guruch, makkajo'xori hosildorligi 10–15% kamayishi mumkin (fao, 2024).

3. Biologik xilma-xillikka ta'siri

Qor barsi, jayron, sayg'oq kabi hayvonlarning yashash areallari qisqarmoqda. O'zbekiston janubiy hududlarida (surxondaryo, qashqadaryo) o'rmon maydonlari 1970-yildan beri 20% ga qisqargan, bu esa eroziya va tuproq degradatsiyasini kuchaytirgan (ekologiya vazirligi, 2024).

4. Iqtisodiy oqibatlar

Energiya sarfi ortmoqda, suv resurslari kamaymoqda, qishloq xo'jaligi va turizm tarmoqlariga zarar yetmoqda. Amudaryo va sirdaryo havzalarida suv hajmi 2050-yilgacha 15–20% kamayishi mumkin.

5. Moslashuv va yumshatish choralar

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni kamaytirish, o'rmonzorlarni kengaytirish, ekologik ta'limni kuchaytirish va parij kelishuvi kabi xalqaro shartnomalarni bajarish zarur.

XULOSA

Iqlim o'zgarishi global ekologik xavf sifatida insoniyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun ilmiy asoslangan chora-tadbirlar, ekologik siyosat va xalqaro hamkorlik zarur. Har bir insonning ekologik mas'uliyat bilan yashashi — barqaror kelajak garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov A., Rasulov B. Iqlim o'zgarishi va uning ekologik oqibatlari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2021. – 156 b.
2. Ismoilov Sh. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2020. – 210 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi. O'zbekistonda iqlim o'zgarishi bo'yicha Milliy hisobot. – Toshkent, 2019. – 98 b.
4. Eshonqulov O., Bozorov X. Biologik xilma-xillik: muammolar va ularni saqlash yo'llari. – Qarshi: QDU nashriyoti, 2022. – 124 b.

